

## O'ZBEK ADABIY TILINING RIVOJIDA ALISHER NAVOIYNING TUTGAN O'RNI

*Navoiy viloyati Navbahor tumani 22-umumi o'rta ta'lim maktabining Ona tili va  
adabiyot fani o'qituvchisi  
**Urinboyeva Fotima Akramovna***

Toki tinmas hayot qo'shig'i  
Ochiladi orzu eshigi,  
Tebranadi xalqim beshigi,  
Navoiydan so'z ochsam agar...

O'zbek xalqi o'tmishda juda ko'p ulug' zotlarni yetishtirib berdi.

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishida g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan biri - bu Alisher Navoiy bobomizdir. Lekin Navoiyning boshqa ulug'lardan farqi shundaki, u o'zbek adabiyoti , ilmiy va madaniyati tarixida bir necha kishi qiladigan ishni bir o'zi bajardi. O'zbek adabiy tiliga asos soldi. Biz uning mo'tabar nomi va ijodiy merosining boqiyligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz. O'zbek adabiyotida Alisher Navoiy ijod bo'stonining rang – barangligi shunday benazir va betakrorki, zero bunday teran va nafislik boshqa biror adib ijodida uchrashi amri mahol. Muhtaram yurtboshimiz, Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov hazrat Navoiy haqida "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, buyuk mutafakkir desak , mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak , shoirlarning sultonidir " deya ta'kidlaganlarida haq edilar. Ba'zan Navoiydek ulug' zotning avlodi ekanligimizdan qalbimizda cheksiz faxr hissini tuyamiz. Bu faxr hissi esa Alisher Navoiy ijodiga nazar solganimizda tog' qadar yuksalaveradi. Alisher Navoiy

g'azal mulkining sultonidir. Alisher Navoiy o'zbek adabiy tiliga asos soldi. O'zbek tilining naqadar chiroyli til ekanligini o'z asarlarida isbotlab berdi.

10-14-asrlarda adabiyotda asosan dariy ( fors-tojik) tili yetakchi til hisoblanardi. Fors-tojik tilida g'azallar, asarlar yozish qariyb muqaddas an'anaga aylangan edi. Adabiyot maydoniga Alisher Navoiy o'z ona tilisi o'zbek (turkiy) tilning otashin tarafdori sifatida kirib keldi, U turkiy tilni

Lazizdir forsiy til, turkiy qo'poldir,  
Nafisdir forsiy til, turkiy qo'poldir

deb kamsituvchilarga qarshi kurashdi. Navoiy turkiy tilning naqadar boy, nafis, she'riyat tili ekanligini isbotlash ushun o'z asarlarini, g'azallarini va "Xamsa"sinı o'zbek tilida yozdi. Hatto "Muhokamat ul-lug'atayn" nomli ilmiy asar yozib, o'zbek tilining fors tilidan ko'ra boyroq til ekanligini isbotlab berdi. Navoiyning kuch-g'ayrati, harakati va o'zbek tilining obro'sini oshirib yuborganligi natijasida turkiy til davlat tiliga aylandi.

Ona tilimiz jozibasini oshirish va adabiy merosimizni boyitishda Navoiyning xizmati beqiyos. O'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri, buyuk davlat arbobi , jahon adabiyotining mislsiz siymolaridan biri Alisher Navoiy sevishga qodir insondir. Uning nomi hamisha qalbimizda yashaydi. Ha, hazrat Navoiy hamisha tirikdir, u bizning qalbimizdadir.

Abadiyat bilan qay so'z egizak,  
Balki yaxshi orzu, yaxshi niyatdir?  
Mangulik anglanar, Navoy desak,  
Navoiyning o'zi abadiyatdir.